E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Nabijonova Feruza

Farg`ona davlat universiteti, o`qituvchi.

Annotatsiya: Hozirgi kunda Respublikamizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish eng ustuvor masalalardan biri hisoblanmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishida ham ko`rishimiz mumkin. Chunki bizning kelajagimiz yosh avlodning bilim saviyasiga bog`liqdir. Yosh avlodga samarali bilim berish esa muallim ustozlarning qo`lida. Bu borada o`qituvchilar o`quvchilarga ta'lim berishda aniq ma'lumotlarga tayangan holda shu ma'lumotlarni yetarli darajada bolaning ongiga singdira olish asosiy vazifasidir. O`quvchilarni darsga va mavzuga qiziqishlarini oshirish va mavzuni to`liq yetkazish uchun interfaol usullarni o`tkazish talab qilinmoqda. Ushbu maqolada darslarda qo`llaniladigan bir necha interfaol metodlar haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** mashg`ulot, bilim, mahorat, interfaol usul, metod, samara, ta'lim, tarbiya, muallim.

Аннотация: В настоящее время воспитание подрастающего поколения считается одним из важнейших вопросов в нашей республике. Наглядным тому подтверждением служит объявление 2023 года «Годом внимания к людям и качественного образования». Потому что от уровня знаний молодого поколения зависит наше будущее. Эффективное воспитание подрастающего поколения находится в руках педагогов. В связи с этим основная задача педагогов состоит в том, чтобы суметь в достаточной мере усвоить эту информацию в сознание ребенка, опираясь на точную информацию при обучении учащихся. Интерактивные методы необходимы для повышения интереса учащихся к уроку и теме и для полной передачи темы. В этой статье рассказывается о некоторых интерактивных методах, используемых в классах.

Ключевые слова: образование, знание, искусство, интерактивный метод, метод, эффект, образование, воспитание, педагог.

Abstract: Currently, education of the young generation is considered one of the most important issues in our Republic. As a clear proof of this, we can see the naming of 2023 as "Year of attention to people and quality education". Because our future depends on the level of knowledge of the young generation. Effective education of the young generation is in the hands of teachers. In this regard, the main task of teachers is to be able to absorb this information sufficiently into the mind of the child, relying on accurate information when teaching students. Interactive methods are required to increase students' interest in the lesson and topic and to fully convey the topic. This article talks about some interactive methods used in classes.

Keywords: training, knowledge, skill, interactive method, method, effect, education, training, teacher.

Bugungi kunda barcha ta'lim sohalarida jumladan, umimiy o`rta ta'lim maktablari, litsey, oliy ta'lim muassasalarida dars mashg`ulotlarini olib borishda interfaol metodlardan foydalanib kelinmoqda. Bu interfaol metodlardan foydalishning ko`plab afzalliklari mavjud. O`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib keladi. O`z vaqtida o`qituvchi va o`quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o`rnatiladi. O`qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko`rinishlarda olib boorish mumkin. Masalan, yakka, juft, guruh, katta guruh kabilar. O`quvchilar yakka holda ishlangan dars mashg`ulotlarida dars mavzusini o`zlashtirish bilan birgalikda mustaqil fikr yurita olish, muammolarni o`z kuchi bilan yecha olish va o`z kuchiga ishonish kabi ijobiy sifatlarni egallaydilar.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Kichik guruh bo`lib ishlaganlarida esa jamoaviy ahillikni his eta oladilar va o`z jamoasini oldinga olib chiqish uchun astoydil harakat qila boshlaydilar. Raqib jamoa bilan raqobatlashish jarayonida dars mavzusini yanada to`liqroq o`zlashtiradilar. Sinf xonasida ta'limga asoslangan sof raqobatlashish vujudga keladi.

Katta guruh bilan ishlashda birdamlik va ahillikni o`rganadilar. Bu sifatlarda ularda vatanparvarlik ruhini rivojlantiradi va darsni qiziqarli o`tishiga yordam beradi. Bundan tashqari o`zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o`quv materiali yaxshi esda qoladi.

O`quv jarayonida o`quvchining o`z-o`ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O`quvchi uchun dars qiziqarli o`qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O`qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo`ladi. Har bir o`quvchining o`zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o`tilgan darslarda o`quvchi faqat ta'lim mazmunini o`zlashtiribgina qolmay, balki o`zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Xulosa shuki, bunday sharoitda o`qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo`yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o`z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo`lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o`quvchi shaxsini rivojlantirish o`z-o`ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya'ni o`quvchining:

a) o`zi mustaqil mutoala qilishi, o`qishi asosida bilim olishi;

b) o`zini-o`zi anglab yetishga, anglab tarbiya topishga;

c) o`z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;

d) o`quv mehnatiga mas'uliyat xissi bilan qarashga;

e) o`z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga;

f) o`quv mehnatiga o`zida xohish, istak uyg'ota olishga;

g) har qanday vaziyatda faollik ko`rsata olishga.

Hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o`rganishi lozim. Shuning uchun ham hozirgi kunda o`quvchining o`zini-o`zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir. Keyingi vaqtlarda o`qituvchilar orasida shaxsga qaratilgan ta'lim nima? Interfaol metodda o`qitish nima uchun zarur? Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni talim jarayoniga qanday olib kiriladi? Uning avvalgi usullardan farqi nimada? degan savollar uchraydi. Bu savollarga aniq javob topish uchun shu kunlarda umumta'lim maktablarimizda olib borilayotgan an'anaviy darslarni yana bir marotaba tahlil etish joizdir. An'anaviy usul XVII asrda Chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan. U o`qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni sinf-dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan. An'anaviy maktab sinf-dars sistemasi quyidagicha o`ziga xos an'analarga ega: taxminan bir xil yoki yaqin yoshli, tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfni tashkil etadi.Sinf yagona reja, dastur, darslik, dars jadvali asosida ishlaydi. Mashg'ulot turi asosan yagona dars hisoblanadi. Dars ma'lum bir o`quv predmeti, mavzuga oid bir xil material ustida ishlaydi. O`quvchilar faoliyatini o`qituvchi boshqaradi, har bir o`quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o`quvchini sinfdan-sinfga ko`chirishni ham u hal qiladi, ya'ni o`quvchilar taqdirining hal etilishi o`qituvchi qo`lidadir.

Interfaol metodlar - shunday metodlarki, u o`quvchilarning o`zaro muloqot va o`zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so`zi ingliz tilidan olingan "Interakt", yani "Inter" - o`zaro, "akt" - harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Interfaol usullardagi darslar o`quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o`zaro faollikda hal etishga, o`z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, ananaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lim mazmunini o`zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o`quv jarayoniga qo`llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o`zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o`quv-biluv jarayoni o`zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o`quvchi - o`qituvchining o`zaro muloqoti asosida kechadi.

Interfaollik - o`zaro faollik, harakat, tasirchanlik, u o`quvchi va o`qituvchi muloqotlarida sodir bo`ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o`quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o`zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o`quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o`tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o`quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko`rgan, bilgan, o`ylagan fikrlarini ochiq - oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to`g'ri yoki noto`g'ri bo`lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi. O`quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o`zlashtirishda o`zlarining shaxsiy xissalarini qo`shish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bunday holatlar o`zaro samimiylikni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o`zlashtirishga havas ortadi.

Dars jarayonida bir-birlarini qo`llab-quvvatlash, o`zaro samimiy, do`stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Dialog asosida kechgan jarayonlarda o`quvchi tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni ham tahlil asosda yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni o`zaro muzokaralarda erkin bayon qilishga o`rganadi va shunday ko`nikmalar shakllanib boradi. Interfaol darslarni tashkil etishda o`quv jarayonida yakka tartibda, juft bo`lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o`yinlar, hujjat bilan ishlash, axborot manbaalari bilan ishlash, ijodiy ishlashlardan foydalanish mumkin. Interfaol usullar nimalarni o`z ichiga oladi? Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi o`qituvchilari turli shakl - formalar taklif etmoqda va amaliyotda qo`llamoqda. Ulardan:

1. Aqliy hujum;
2. Muzyorar;
3. FSMU texnologiyasi;
4. Zinama-zina texnologiyasi;
5. Kungaboqar;
6. Blis-so`rov texnologiyasi;
7. Zigzag;
8. Gurgurt donachalari;
9. Mantiqiy ketma-ketlik va boshqalar.

Aqliy hujum-asosan guruh mashg`ulotlarida foydalaniladi. Ushbu jarayon o`quvchilarning ijodiy fikrlashlarini va g`oyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aqliy hujum

o`quvchilarga birgalikda ishlashni o`rganishga yordam beradi va eng avvalo bir-birlaridan o`rganadi.

Muzyorar – muomaladagi to`siqlarni yengib o‘tishga va o‘zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o‘zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

O`quvchilar darsning boshlanish qismida navbatma-navbat bir-birlariga tilaklar aytishadi va bu tilaklarining tarkibiy qismlarida fanga oid terminlardan foydalanadilar. Barcha o`quvchilar tilaklarini bildirganlaridan so`ng, nutqlarida ishlatgan terminlarni izohlashlari kerak.

Masalan, matematika darsida “Umringiz natural sonlardek cheksiz bo`lsin. Oila a’zolaringiz safi qo`shilsa qo`shilsinki, hech qachon ayirilmasin!” kabi tilaklardan foydanishlari mumkin. Natural sonlar-sanashda ishlatiladigan sonlar bo`lib, ular cheksiz hisoblanadi.

Bu metod orqali o`quvchilarning kayfiyatlari ko`taribgina qolmasdan, ular orasida mehr-oqibat kuchayadi va o`tilgan mavzular takrorlanadi.

FSMU texnologiyasi:
(F) – Fikringizni bayon eting.
(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko`rsating.
(M) – Ko`rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o`rgatadi.

“Zinama-zina” texnologiyasi: o`qituvchi o`quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo`lgani ma’qul); o`quvchilar mashg`ulotning maqsadi va uning o`tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog`ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo`lgan varaqlar tarqatiladi; o`qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog`ozdagi bo`sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi; guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko`rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo`yicha imkon boricha to`laroq ma’lumot berishlari kerak bo`ladi. Tarqatma materiallar to`ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materialar, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;

O`qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg`ulotni yakunlaydi.

“Kungaboqar”: O`quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo`linadi. O`qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o`rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o`sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo`yadilar. Bu uslubdan o`tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

“Blis-so`rov” texnologiyasi: ushbu usul orqali talabalarga tarqatilgan qog`ozlarda ko`rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo`la olish kabi ko`nikmalarni shakllantirish. Mashg`ulotlar interfaol usullardan foydalanish ta`lim sifatini oshirishda muhum omil hisoblanadi. To`g`ri tanlangan usul maqsadga erishishda

birlamchi qadam bo`lish barobarida ta'limda innavatsiya, erkin fikrlash, mulohaza yuritish va masalani yechimini izlab topish yo`l-yo`riqlarini shakllantiradi.

«Zigzag» metodi: Sinf o`quvchilari 4-7 guruhga bo`linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O`quvchilar matnlarni diqqat bilan o`rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to`ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o`quvchilari o`zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so`zlab berganlaridan so`ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o`rganib chiqilgach o`quvchilar o`tilgan mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o`zaro mantiqiy bog`liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g`oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So`ngra o`zlashtirilgan bilimlar asosida o`quvchilarning o`zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Gurgurt donachalari metodi-ushbu metodda o`qituvchi o`quvchilarga gurgurt cho`plarini taqdim etadi, o`quvchilardan ixtiyoriy donachalarni tanlab olishni so`raydi. O`quvchilar ma'lum bir gurgurt donachalarini tanlab olganlaridan so`ng, o`yin sharti e'lon qilinadi. Shartga ko`ra o`quvchilar nechta donachalarni tanlab olgan bo`lsalar, shuncha o`tilgan mavzuga doir ma'lumotlar aytilishi talab qilinadi. Bu metod orqali noan'anaviy tarzda o`tilgan mavzuni takrorlash mumkin.

Mantiqiy ketma-ketlik-bu metodni o`tkazishda hikoya, maqollar, ibratli so`zlar yoki ertaklardan foydalanish mumkin. Ma'lum bir hikoya yoki ertak bir necha qismlarga ajratiladi, o`quvchilar guruh bo`lib hikoyaning qismlarini tiklab, yaxlit bir ko`rinishga keltirib chiqarishlari talab qilinadi. Guruh a'zolari hikoyani tiklab bo`lganlaridan so`ng, ushbu hikoyaning mazmunini rollarga bo`lingan holatda ijro qilib ko`rsatib berishlari kerak.

Hikoyani tiklashda har bir hikoya qismlari o`qib chiqilib, mos juftlikni topish jarayonida o`quvchilarning o`qish tezligi ortib boradi, topqirikka va tezkorlikka o`rganadilar. Ijro bosqichini tomosha qilgan boshqa guruh a'zolariga esa hikoyaning mazmuni yanada tushunarliroq bo`ladi. Bu metoddan boshlang`ich sinflarda ona tili va o`qish savodxonligi, tarbiya, atrofimizdagi olam fanlarida foydalanish mumkin.

Yuqoridagi turli shakl - formalardan foydalanishda, o`quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, ularni ko`nikma va malakalarga ega bo`lgan hollarda qo`llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin.

REFERENCES:

1. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 190-195.
2. Dilobarkhon, K. (2019). The importance of modern innovation in education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12).
3. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". *PEDAGOGICAL SCIENCES*, *22*.
4. Maxsitovna, K. D. (2022). Pedagogical Problems of Child Raising in the Uzbek Family. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *5*, 542-546.
5. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 139-144.
6. Холикова, Д. (2021). Возможности диагностики эффективности компенсационного подхода в обучении. *Общество и инновации*, *2*(9/S), 239-252.

7. Kholikova, D. M. (2021). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INCREASING INNOVATIVE THINKING IN STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 422-424.

8. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 549-552.

9. O.Erkaboyev, D.Tursunova. Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish . PEDAGOG, 2023. 59-61

10. O.Erkaboyev. O'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi. Ta'lim fidoyilari, 2022. 73-79

11. Khalilovich, N. E., & Alijonovna, N. G. (2023). THE IMPORTANCE OF RECYCLING NATURAL RESOURCES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(3).

12. Нажмиддинов, Э., & Мухамедиев, М. (2023). FISH HELMINTHS IN FISH RESERVOIRS OF FERGANA VALLEY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(3).

13. Нажмиддинов, Э. Х., & Муҳаммадиев, М. А. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ ҲАВЗАЛАРИ БАЛИҚЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИНИНГ ТУР ТАРКИБИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(12), 60-68.

14. Нажмиддинов, Э. Х. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ ҲАВЗАЛАРИ БАЛИҚЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 189-194.

15. Najmiddinov, E. (2022). THE SIGNIFICANCE OF NATURE IN THE FORMATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE IDEAL GENERATION. *Science and Innovation*, *1*(8), 149-154.

16. Najmiddinov, E. (2022). " ICHTHYOLOGY AND HYDROBIOLOGY" PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIRECTIONS IN UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, *1*(8), 152-160.

17. Kholmatova, Z. T. (2022). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GENDER ASPECTS OF EDUCATION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 60-65.

18. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 190-195.

19. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 139-144.

20. Kholmatova, Z., & Axmadaliyeva, M. (2022). Healthy lifestyle (HLS)-The basis of valeology in kindergarten. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, *11*(9), 136-139.

21. Kholmatova, Z., & Olamnazarova, F. (2022). Problems of the communicational approach of language teaching in the primary class. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, *11*(9), 140-144.

22. Tillavoldievna, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *5*, 535-541.

23. Холматова, З. Т. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВ ДАВР ТАЛАБИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, *2*(3), 134-140.

24. Tillavoldievna, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *5*, 535-541.

25. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.

26. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O ‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 176-182.

27. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, *1*(B8), 99-105.

28. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, *1*(8), 99-105.

29. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).

30. Dilshodbek o‘g‘li, R. S., & Boxodirjon o‘g‘li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(12), 39-47.

31. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, *1*(000006).

32. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA’LIM VA O’QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(19), 366-372.

33. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(19), 180-184.

34. НАБИЖОНОВА, Ф. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития"*, (10), 90-92.

35. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 32-36.

36. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.

37. Kalandarovna, Y. L. (2022). ORIGIN AND CONCEPT OF TABOO VOCABULARY. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, *3*(10), 184-190.

38. Yulchiboyeva, L. Q. (2022). IRIM-SIRIM BILAN BOG ‘LIQ TIL BIRLIKLARINING TAHLILIY O ‘RGANILISHI. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 170-175.

39. Kalandarovna, Y. L. (2022). Identification And Education Of Gifted Children. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 42-47.

40. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar Talqinida Lingvistik Imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *2*(Special Issue 3), 91-95.

41. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(9), 349-353.

42. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIIY TAXALLUSLARNING QO ‘LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

43. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA “SHAXS” TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(2), 182-196.

44. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, *3*(4), 506-514.

45. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. *Экономика и социум*, (6-1), 156-159.

46. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
47. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука"*, 37-38.
48. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕҲНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. *Студенческий вестник*, (22-7), 9-10.
49. Қипчақова, Ё., Соибжонова, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Студенческий вестник*, (22-7), 11-12.
50. Iminov, B. B. (2020). INNOVATIVE CULTURAL LINKS ARE AN IMPORTANT FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(3), 263-270.
51. Iminov, B. B. (2019). A PHILOSOPHICAL APPROACH TO INNOVATIVA AND CULTURAL-RELATIONS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(5), 157-162.
52. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Musajonovna, A. F. (2022). SPELEOTOURISTIC POSSIBILITIES OF FERGANA VALLEY. *Scientific Impulse*, *1*(4), 66-70.
53. Mamatisakov, J. (2022). 1 Òzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) 2 Ziyo. uz (sayti). *Scientific Impulse*, *1*(2), 587-590.
54. Mamatisakov, J., Egamberdi, B., & Dostonbek, M. (2022). TERRITORIAL ASPECTS OF THE DISTRIBUTION OF ETHNOOYCONYMS OF FERGANA REGION. *Scientific Impulse*, *1*(2), 591-595.
55. Mamatisakov, J. (2022). IMPROVING STUDENTS'GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, *3*(10), 88-94.
56. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, *2*(12), 73-79.
57. Қурбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *2*(17), 191-194.
58. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).
59. Miralimjanovna, Q. S. (2022). O ‘SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *30*, 39-44.
60. Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O‘YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. Uzbek Scholar Journal, 5, 207–209.
61. Askarov, A. (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. Science and innovation, 1(B8), 87-91.
62. Askarova, D. (2022). FORMATION OF CREATIVITY AND BOOKREADERS QUALITIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTION. Science and innovation, 1(B8), 1039-1044.

63. Askarova, D. I. (2022). The Role Of Folk Pedagogy In The Development Of Creativity Of Students Of Higher Educational Institutions. Oriental Journal of Social Sciences, 2(02), 89-96.

64. Dilafruz, A. (2022). Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Va Oilada Gender Xususiyatlarni Shakllantirish Omillari. Innovation In The Modern Education System, 2(18), 183-189.

65. Askarova, D. I. (2022). USE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(10), 92-97.

66. Askarova, D. I., & Jabborova, M. K. (2022). The Introduction Of Gender Issues In Preschool Education On The Example Of Folk Pedagogy. Oriental Journal of Social Sciences, 2(05), 81-87.

67. To‘lqinovna, Y. D. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 25-31.

68. Yuldasheva Dilshoda To‘Lqinovna (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. Science and innovation, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521

69. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, *2*(04), 124-130.

70. Tulkinovna, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, *10*, 32-35.

71. Ummatqulov, T. (2022). INSON SOG'LOM BO'LISHIDA VALEOLOGIYA FANINING AHAMIYATI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, *2*(12), 80-88.

72. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *2*(2), 47-49.

73. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).

74. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).

75. Ulugbek, R. (2021, January). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 131-136).

76. Kakharovna, A. M., Tadjimatovich, Y. M., Rakhmatovich, S. O., & Mirzahamdamovna, Q. B. (2021). Modern Approaches to the Teaching of Fine Arts. *Solid State Technology*, *64*(2), 4250-4254.

77. Ahmedbekova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, *1*(B8), 112-119.

78. Maxpuzakhon, A. (2022). Methods of Using Modern Pedagogical Technologies in Organizing Fine Arts Lessons. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, *3*(11), 268-271.

79. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.

80. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(3), 1040-1044.

81. Alimjanova, M. (2021). About Gender Stereotypes. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, *2*(6), 1-5.

82. Yunusovna, A. M. (2021). Pedagogical system of responsibility formation in primary school students based on national staff. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *2*(06), 1-7.

83. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar Talqinida Lingvistik Imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *2*(Special Issue 3), 91-95.

84. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). LINGVOKULTUROLOGIYADA “SOG’INCH” KONSEPTINING QO’LLANILISHI VA O’ZIGA XOSLIKLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *1*(8), 711-717.

85. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). MATNLARDA OBRAZLAR SILSILASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *1*(9), 366-369.

86. Gulnoza, R., & Madinabonu, I. (2022). XALQ OG’ZAKI IJODIDA “SHAXS” SEMASINING OYDINLASHUVI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(12), 98-108.

87. Sobirovna, U. O. (2022). BOSHLANG’ICH TA’LIMDA YANGI DARSLIK VA ERISHILGAN NATIJA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 230-234.

88. Sobirovna, U. O. (2022). NATIONAL CURRICULUM AND NEW GENERATION MOTHER TONGUE AND READING TEXTBOOK. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, *3*(10), 176-183.

89. Usmanova, O. S. (2022). A TEXTBOOK ON NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY, CREATED ON THE BASIS OF THE NATIONAL CURRICULUM. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 48-54.

90. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemo Technique in the Textbook of Primary School Native Language and Reading Literacy. *International Journal of Culture and Modernity*, *17*, 421-426.

91. Усмонова, О. (2022). РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *2*(Special Issue 3), 148-158.

92. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *6*, 446-450.

93. Исроилова, С. М., & Мадумарова, М. Д. (2022). ПОИСК НАИБОЛЕЕ ОПТИМАЛЬНЫХ СПОСОБОВ ИНТЕНСИФИКАЦИИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. *Вопросы науки и образования*, (1 (157)), 8-14.

94. Исраилова, С. М., & Мадумарова, М. Д. (2019). Исторические предпосылки типологических исследований. *Проблемы современной науки и образования*, (12-2 (145)), 121-123.

95. Ra’noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 203-207.

96. Мирзабоев, Й. А. (2022). Тур Ўзгариш Чизиқлари Учта Бўлган, Гиперболик Қисмларининг Ҳаммаси Характеристик Учбурчаклардан Иборат Бўлган Бешбурчакли

Соҳада Учинчи Тартибли Кўринишдаги Параболик-Гиперболик Тенглама Учун Битта Чегаравий Масала Ҳақида. *Theory And Analytical Aspects Of Recent Research*, *1*(5), 363-366.

97. MIRZABOYEV, Y. BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MATEMATIKA O 'QITISH METODIKASI. O 'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O 'QITISHNING MAQSADI. *ЭКОНОМИКА*, 169-172.

98. Dilshodbek O'g'li, R. S. (2022). The Role Of Physical Culture In Providing The Psychological Health Of The Athlete. *Innovative Developments And Research In Education, Canada*.

99. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH–IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, *30*, 66-70.

100. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 215-221.

101. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, *3*(11), 256-259.

102. Abidjanovich, A. A. (2022). THE NEED TO IMPROVE HUMAN'S NOOSPHERICAL RELATIONSHIP TO NATURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(11), 23-30.

103. Abidjanovich, A. A. (2022). THE ROLE OF CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING PERSONAL ECOLOGICAL CULTURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(11), 5-12.

104. Абдумаликов, А. (2022). АТРОФ-МУҲИТНИ АСРАШ БЎЙИЧА МИЛЛИЙ СТРАТЕГИК РЕЖА ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, *2*(2), 251-258.

105. Абдумаликов, А. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЭКОЛОГИК МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ДАСТУРИ. *Scientific progress*, *3*(2), 1179-1186.

106. Абдумаликов, А. А. (2019). Human and Natural Harmony in the Historical Process. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(5), 205-209.

107. Abidzhanovich, A. A. (2020). Issues Of Formation Of Rationality In Relations Of Nature With Society. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(08), 301-304.

108. Abdumalikov, A. A. (2019). Environmental Ecological Policy in Uzbekistan and Necessity Of Formation Of Rational Communication To Nature. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(9), 94-101.

109. Soliyev, A. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI ONGIDA MILLIY MUSIQIY OHANGLARGA MOYILLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MILLY CHOLG 'ULARNING O'RNI. *Science and innovation*, *1*(1), 637-646.

110. Раҳмонов, У. К., & Солиев, А. Р. (2022). СОЗАНДАЛИК САНЪАТИНИНГ БАРМОҚДАГИ НОЛАЛАРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(12), 109-119.

111. Солиев, А. (2022). ВАТАН ТУЙҒУСИ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *5*(2), 120-123.

112. Солиев, А., Аблязов, Д., & Тўланов, Б. (2022). МУСИҚА ТАЪЛИМИДА КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(19), 207-211.